Tadqiqot uz



# ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ

## МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

» Ҳуқуқий тадқиқотлар
» Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
» Тарих саҳифаларидаги изланишлар
» Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
» Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
» Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
» Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
» Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
» Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
» Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
» Физика-математика фанлари ютуқлари
» Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
» Кимё фанлари ютуқлари
» Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
» Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
» Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Crossref

30 NOYABR
№34

CONFERENCES.UZ

# “ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ” 12-ҚИСМ

# «ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА» ЧАСТЬ-12

# «INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF UZBEKISTAN» PART-12

ТОШКЕНТ-2021

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**"Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари"** мавзусидаги республика 34-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 9 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

**1. Sayidova Nilufar Bahodir qizi**
O`ZBEKISTON DAVLAT TABIAT MUZEYI. ..........................................................................7

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

## O`ZBEKISTON DAVLAT TABIAT MUZEYI.

**Sayidova Nilufar Bahodir qizi**
Milliy Rassomlik va dizayn instituti
1 kurs magistranti
Tel: 998946575685

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nafaqat yurtimizdagi balki Markaziy Osiyodagi eng katta va mashhur muzeylardan biri O`zbekiston Davlat tabiat muzeyi haqida yoritilgan. Ushbu muzeyning yaratilish tarixi va bugungi kuni haqida batafsil ma`lumotga ega bo`lishingiz mumkin.

**Kalit so`zlar:** Muzey, ekspeditsiya, tabiat muzeyi, tabiiy ilmiy muzeylar, komplektlashtirish, antropologiya, etnografiya, zoologiya, qishloq xo`jaligi, minerallar, evolyutsiya.

Markaziy Osiyoning eng yirik tarixiy muzeylaridan biri hisoblangan O`zbekiston Davlat tabiat muzeyi o`zining boy kolleksiyasi bilan boshqa muzeylaridan ajralib turadi. Muzey tarixiga nazar soladigan bo`lsak dastlab "Toshkent muzeyi " deb nomlangan. 1876 yilda uyushtirilgan ekspeditsiyalar natijasida to`plangan tabiatshunoslik, antropologiya, etnografik kolleksiyalar asosida tashkil qilingan. Dastlab ashyolar komplektlashtirilmagan. 1930 yilga kelib esa, barcha ashyolar tartibga solinib, bo`limlarga ajratildi. 1935- yilga kelib esa muzey "O`zbekiston Davlat tabiat muzeyi" maqomini oldi va bugungi kunda ham shu nom bilan faoliyat yuritib kelmoqda. Muzeyda 10 ta zal mavjud bo`lib, jami 363059 ta eksponatlarga ega. Eng katta zallardan biri bu "Hayvonot dunyosining xilma-xilligi" zali bo`lib, unda yurtimiz faunasining xilma-xilligi haqida tushuncha beriladi. O`zbekiston hududida uchraydigan 688 tur umurtqali hayvonlar mavjud bo`lib shularning 76 turini baliqlar, 141 turini esa qushlar tashkil qiladi. Ushbu zalda O`rta Osiyoda kamyob hisoblangan asosan baland cho`qqilarda uchraydigan Ilonxo`r burgutni, turna, qarqara, arixo`r kabi ajoyib qushlarni, bo`ri silovsin kabi yirtqich hayvonlarni ko`rishimiz mumkin.

Ikkinchi zal "Qishloq xo`jaligi" zali bo`lib, bu yerda yurtimizda meva va sabzavotlar yetishtirishdagi yutuqlar, paxtachilikka, sholikorlik, g`allachilikka oid bir qancha tajribalarni ko`rishimiz mumkin. Turli xil g`o`za navlarini, sholi, bug`doy navlarini ekspozitsiyada ko`rishimiz mumkin. Uchinchi zalimiz esa, "Geologik o`zgarishlar tarixi va Yerda hayotning rivojlanishi"deb nomlanadi. Ekspozitsiyada eng mashhur hayvonlardan biri Mamont terisi va son suyagi ham bor. Bu eksponatni 1976 yilda muzeyning 100 yillik yubileyiga sovg`a qilingan. Bundan tashqari pitekantrop, neandertal, sinantrop, kromanyon kabi qadimgi odam haykallari mavjud. Shuningdek ular foydalangan tosh qurollar ya`ni chopperlar ham vitrinadan joy olgan. Yurtimiz hududida qadimgi bitiktosh qoyatosh suratlari ko`p uchraydi. Shulardan eng mashhurlari Navoiy viloyatida Sarmishsoy darasidagi , Surxondaryoning Zarautsoy tog`idagi kromonyon odami chizgan turli shakllarning fotosuratlari ekspozitsiyaga qo`yilgan.

To`rtinchi zal "Geologiya zali"dir. O`zbekiston o`lkasi foydali qazilmalari jihatdan dunyoning yetakchi davlatlaridan biri sanaladi. Bu zalda neft, ko`mir, turli ma`danlar, oltin, kumush, mis, qo`rgo`shin, qimmatbaho toshlar, kristallar namoyishga qo`yilgan bo`lib, bularning barchasi yurtimizning Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Toshkent kabi bir qator viloyatlaridan qazib olinadi.

Beshinchi zal eng katta zallardan biridir. U "Entamologiya" bo`limi deb ham ataladi. Bilamizki, O`zbekiston hududida hashorotlar juda ko`p tarqalgan bo`lib, ular ham hayvonot olamida o`zining shakliga, tuzulishiga va hayot tarziga egadir. Ushbu zalda to`g`riqanotlilar (chigirtkalar), pardaqanotlilar (kapalaklar), yirik turli qanotlilar (qo`ng`izlar) kabi boy kolleksiyani ko`rishimiz mumkin.

Oltinchi zal "Genetika va seleksiya " zalidir. Ekspozitsiyada biz mutatsiyani, hujayralarning

bo`linishi, ko`payishi, tuzulishi, DNK tuzilmasi tarmog`ini, reduplikatsiya sxemasini, zanjirli irsiylanish kabi holatlarni misollar tariqasida ko`rish mumkin. Bulardan tashqari tajribalar misolida hayvonlarda kechkan turli seleksiyalarni qo`zichoq, buzoqcha, tovuq kabi misollar orqali namoyish etilgan.

Yettinchi zalimiz “Dunyo hayvonlari” zali bo`lib, bu zalda mamlakatimizda uchramaydigan dunyo hayvonlarining ba`zi turlari bilan tanishishingiz mumkin. Mushuksimonlar oilasiga mansub Afrika sheri, imperator pingvini, shimpanze, tuyaqush, fil toshbaqa kabi noyob hayvonlar ekspozitsiyadan joy olgan.

O`zbekistonning jonli tabiati o`zining bir-birini takrorlamas go`zalligi, ajabtovurligi, rohatbaxsh tabiat manzaralari bilan, baland cho`qqili tog`lari, so`lim tabiati, madaniy boyliklari bilan chet ellik sayyohlarni ham jalb qilmoqda. Aynan sakkizinchi zal yurtimiz tabiatiga bag`ishlangan bo`lib, “O`zbekiston tabiati” deb nomlanadi. Yurtimiz tabiatini go`zal fotosuratlar orqali ham namoyish qilishgan. “O`tov”, “Chorvoq suv ombori”, “Paxta terimi”, “Uzumzor”, “Pilla terimi” kabi asarlar shular jumlasidandir.

Eng mashhur zallardan biri bu “O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobi” zali hisoblanadi. Ushbu ekspozitsiyada “Qizil kitob”ga kiritilgan hayvonlar va o`simliklar o`rin egalla gan bo`lib, biularning ba`zilari yagona tur hisoblanadi. Qo`riqxonlarda “Qizil kitob”ga kiritilgan Buxoro bug`usi, morxo`r, Qizilqum arxari, ko`k sug`u, Turkistonb silovsini kabi hayvonlar muxofazaga olingan bo`lib ular haqida roliklar namoyish etiladi. Bundan tashqari ekspozitsiyada Orol dengizi tasvirlangan asarlar va fotosuaratlar ham o`rin egallagan. Eng oxirgi zal “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, qo`riqxonalar va tabiat bog`lari” deb nomlanadi. Respublikamizda bugungi kun da 9 ta davlat qo`riqxonalari, 2 ta tabiiy bog`, 10ta davlat buyurtmasi asosida tashkil qilingan bog`, hayvonlarni ko`paytirishga ixtisoslashtirilgan yagona “Jayron” ekomarkazi mavjud. Bularning faoliyati va istibolli rejalari haqida ushbu zalda ma`lumot olish mumkin.

Yurtimiz tarixiga nazar soladigan bo`lsak, dastlab tashkil etilgan muzey aynan tabiat muzeyi hisoblanadi. Ushbu muzeyda yillar davomida o`zining jilosini yo`qotmay kelayotgan tabiatning noyob durdonalari saqlanib kelinmoqda. Ularni asrash, kelajak avlodga yetkazish barchamizning oldimizda turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni ona zaminga muhabbat tuyg`usi bilan ulg`ayishi uchun tabiat muzeylarining o`rni kattadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

1. D.T.Kuryazova “Muzey ishi asoslari” 2019 y
2.T.Jurayev, U.Tursunov “O`zbekiston Davlat tabiat muzeyi” 2020 y
3. N.Sodiqova”Madaniy yodgorliklar tarixi” 1975 y

# “ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

**(12-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**Тошкент**